

**NAVOIY VILOYATI HUDUDIDA AHOLINING YUQUMLI-PARAZITAR
KASALLIKLARGA CHALINISH HOLATI TAHLILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10629879>

Shodiyev S.R

O`zbekiston. Navoiy davlat pedagogika instituti g.f.d., Dsc.

Norquvvatova G.I

Navoiy davlat pedagogika instituti i.f.f.d. (PhD)

Parmonova N.A

Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada Navoiy viloyati aholisining yuqumli parazitlar kasalliklarga chalinishining hududiy tarkibi bilan birga uning tumanlar tarkibida aholining kasallanish darajalari tahlil qilingan*

Kalit so`zlar: *Aholi, yuqumli-parazitlar, tumanlar, Qiziltepa, xastaliklar*

Ko'pchilikka yaxshi ma'lumki, nafakat bizning respublikamizda, balki bugungi kunda yer yuzida aholi orasida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri yuqumli kasalliklar tarkibiga kiruvchi brutsellyoz bulib, uning sinonimlari sifatida Mal'ta, O'rta Yer, Kipr, Gibraltar bezgagi. Traum kasalligi, Bryus sindromi nomlari e'tirof etiladi. Kasallik Gippokrat davridan ma'lum bulsada u shotland vrachi va mikrobiologi Devid Bryus (1855-1931) tomonidan batafsil o'rganilgan, bu kasallik mamlakatimizda aholi orasida keng tarqalgan kasalliklardan biridir. Mazkur kasallik eramizdan avvalgi asrlarda xam axoli orasida uchragan yuqumli kasalliklardan biri bo'ganligi haqida ma'lumotlar bulsada, uning ilmiy jihatdan o'rganilishi 1860 yildan boshlangan. Kasallikni shotland vrachi va mikrobiologi Devid Bryus ilk marta echki sutida aniqlagan. Brutsellyoz o'choklari yer sharining barcha mintaqalarida keng tarqalgan bo'lib, ushbu kasallik bilan kasallanish hamda yuqtirishning aksariyat qismi chorvachilik rayonlari uchun xos O'zbekistonda ushu kasallik ko'rsatkichlari so'nggi yillarda birmuncha ortib brogan. O'zbekistonda o'z salmog'i jihatidan ko'zga tashlanuvchi kasallik guruhlaridan yana biri yuqumli va parazitlar xastaliklardir. Ushbu guruh kasalliklari tarkibiga ichak infeksiyalari (ich terlama, paratif A,V,S, salmonellyoz, dizenteriya), tuberkulyoz, bakterial zoonozlar (kuydirgi, brutsellyoz), boshqa bakterial kasalliklar (bug'ma, qizilcha, qoqshol, meningit, ko'k yo'tal), poliomyelit, virus va xlamidiyalar orqali vujudga keluvchi kasalliklar (virusli gepatit A, virusli gepatit V, quturish), rikketsiozlar orqali paydo bo'luvchi kasalliklar (ku isitmasi, leyshmanioz, bezgak) va boshqalar kiradi.

Ushbu kasalliklarning geografik jihatdan tarqalishi ko'proq aholining sanitar madaniyat darajasiga, yashash muhitiga, ularning ijtimoiy shart-sharoitlariga, aholining zichligi va boshqa ko'pgina omillarga bog'liq. Yuqumli-parazitlar kasalliklar mamlakatimizda

2001 yilda har 10 ming aholiga 140,8 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yilga kelib bu raqam 114,6 kishiga kamaydi. So'ngi yillarda esa 100 ming aholiga nisbatan 2020-yilda 55,2 kishini tashkil qilgan. Bu esa bir baravarga kamayganligini kuzatish mumkin.

Navoiy viloyatida yuqumli va parazitlar kasalliklar bilan og'rikanlar 2011 - yilda har 100 ming kishiga nisbatan jami 1285,3 kishi bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich kelib, 1641,0 kishiga yetdi, bundan ko'rinib turibdiki, qariyb 5 yil davomida sezilarli darajada o'sgan. hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak bu ko'rsatkich Navoiy shahrida (3343.0) va Qiziltepa tumanida (2919.4) viloyat kesimidan ancha yuqoriligi bilan ajralib tursa, aksincha, Tomdi tumani (302.9) va Zarafshon shahrida (642.7) kishiligi bilan ajralib turadi. Yuqumli-parazitlar kasalliklar orasida ichak infeksiyalari (ich terlama, paratif, salmonyoz, dizenteriya) alohida o'rin egallaydi. Ushbu kasalliklarning yuqish ehtimolligi boshqa yuqumli kasalliklarga qaraganda ancha yuqori turadi. Mazkur xastalikning ham boshqa kasalliklar singari hududiy tarkibi ancha keng areallarni egallaydi. Kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarga qarshi qanchalik kurashilmasin, ularni batamom yo'qotish katta mashaqqatlar evaziga qo'lga kiritiladi. Lekin keyingi yillarda respublikamizda ularga qarshi samarali choratadbirlar olib borilganligi tufayli kasalliklar biroz bo'lsada kamaygan. Jumladan, ich terlama kasalligi 1996 yilda har 100 ming aholiga 1,1 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda uning salmog'i 0,1 ga tushib qoldi. 2021-yilda ushbu kasallik sababli xastalanish kuzatilmagan. 2020-yilda esa ming kishi hisobga olingan.

Navoiy viloyati hududida 2016-2021-yillar hisobida ich-terlama kasalligiga chalinish aholi orasida kuzatilmagan. Yuqumli-parazitlar kasalliklar tarkibiga kiruvchi salmonyoz kasalligini hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak bu ko'rsatkich Navoiy viloyati hududida har 100 ming aholi hisobiga 2017-yilda 15, 2020-yilda esa 0.4 kishini tashkil qilgan. Respublika miqiyosida esa bu kasallik darajasi tegishli tarzda 740 va 1.0 kishini tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki yildan yilga bu kasallik darajasi kamayib borgan.

Hududlar bo'yicha aholining bakterial-dezentiriya kasalligiga chalinishi Navoiy viloyati hududida 2017-yil hisobida har 100 ming aholiga nisbatan 68,0 kishi bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2020-yilda 0,5 kishiga kamaygan. Shuningdek, aholining o'tkir ichak infeksiyalari bilan kasallanish holatlari tahlil qilinganda quyidagi holat ko'zga tashlanadi. Bunda eng yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri keladi. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida esa ko'rsatkichlar respublika darajasidan birmuncha past. Navoiy viloyati hududida oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'rikan bemorlar soni 2011-yilda har 100 ming kishiga nisbatan 7136.2 kishi, 2016-yilda esa 7699.1 kishiga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich hududlar kesimida eng yuqori Konimex (12982.5) va Qiziltepa (10692.3) tumanlarida kuzatilgan. Uchquduq (3189.4) va Navbahor (5524.4) tumanlarida esa eng past ko'rsatkich qaytd etilgan. Buning asosiy sababi hududlarning issiq iqlimi, aholining ovqatlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari, ayrim hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi oshqozon-ichak tizimi kasalliklari ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, respublika hududi uzoq asrlar davomida turli xil yuqumli kasalliklar o'chog'i bo'lib kelgan. O'lkada xususan vabo, bezgak, rishta, traxoma, tog' va tog' oldi hududlarida esa ko'proq sil, zotiljam singari xastaliklar keng tarqalgan edi. Aholi yashash tarzining og'irligi, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmaslik, infeksiya qo'zg'atuvchilarga qarshi kurashuv chora-tadbirlarini qo'llay bilmaslik oqibatida mintaqada turli yuqumli kasalliklar ko'p bo'lgan. Chunonchi, o'tmishda Navoiy viloyati yuqumli xastaliklar keng tarqalgan tipik hududlardan hisoblangan. Bu yerda, ayniqsa, iflos suv manbalari tufayli rishta, bezgak, vabo xastaliklari keng yoyilgan. Keyinchalik tibbiy nazoratni yo'lga qo'yila borishi, aholi ijtimoiy ta'minotini izga tushishi natijasida ko'pgina yuqumli xastaliklar batamom yo'qotildi. Lekin, bunday kasalliklarning ba'zilari butunlay tugatilgan bo'lsada, ularning ayrim turlari hozir ham uchrab turadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda aholi orasida virusli gepatit kasalliklari ancha kamaygan. Jumladan, ushbu kasallik 1996 yilda respublikamizda har 10 ming aholiga 32,2 kishini tashkil etgan holda, bu raqam 2000 yilda 23,4, 2014 yilda 12,3 kishiga kamaygan. Biroq, so'nggi uch yil mobaynida mazkur xastaliklar yana biroz ko'paygan. Navoiy, Namangan, Toshkent shahri va viloyatlarida ahvol respublika darajasidan ancha yuqori. Qolgan esa nozogeografik vaziyat birmuncha ijobiy tus olgan. Verusli gepatit kasalligining tarqalish areallari Navoiy viloyati hududi tumanlarida eng past ko'rsatkich 2016- yil hisobi bo'yicha Tomdi (6,8) va Karmana (21,7) tumanlarida kuzatilsa, aksincha eng yuqori Navoiy shahrida (228,9) va Konimex (166,9) tumanida qayd etilgan bo'lsa, Navoiy viloyati hududida bu ko'rsatkich 2011-yilda har 100 ming aholiga jami 91,2 kishidan 2016-yil 106,8 kishiga ortgan. Bundan ko'rinib turibdiki viloyat hududida verusli gepatit kasalliklarini tarqalish areallarini yanada chuqurroq o'rganishimiz kerakligi va chora tadbirlarni kuchaytirishimiz kerakligi ko'rinib turibdi. Mamlakatimizda sanitariya-epidemiologiya markazlari, qolaversa, barcha tibbiy muassasalarning harakati tufayli mazkur kasalliklar yil sayin biroz bo'lsada kamaygan.

Difteriya (bug'ma) kasalligi ham yuqumli-parazitar kasalliklar orasida muhim o'rin tutadi. 1996 yilda ushbu kasallikka chalinganlar har 100 ming aholiga hisoblaganda 0,7 kishiga teng bo'lgan, 2000 yilda 0,2 kishiga, so'nggi to'rt yil davomida 0,0 ni tashkil qilgan. Aholining koklyush (ko'k yo'tal) bilan kasallanish holati borgan sari kamayib bormoqda. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu kasallik asrlar davomida O'rta Osiyo hududida juda keng tarqalgan. Tibbiy nazorat qanchalik kuchaymasin bugungi kunda ham mazkur xastalik uchrab turadi.

Yuqumli kasalliklar tarkibiga kiruvchi qizamiq ham, tibbiy emlash muolajalariga qaramay, mamlakatimizda hanuzgacha ko'p uchraydi. 1996 yilda har 100 ming aholiga 1,0 kishini tashkil qilgan holda, 2014 yilda bu raqam 0,27 kishiga 2020 yilda esa 1,26 kishiga o'zgargan. Navoiy viloyati hududida esa bu ko'rsatkich 2017-yilda kuzatilmagan, ammo, 2020-yilga kelib esa har 100 ming aholiga nisbatan 13,2 kishini tashkil qilgan. Oxirgi o'n yillikda mamlakatimizda poliomiylit kasalligi umuman qayd etilmagan. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda aholi orasida ayrim kasallik turlari ortib bormoqda.

Masalan, mamlakatda ayniqsa tuberkulyoz (sil) xastaligining ko'payib borayotganligi sir emas. Avvalroq qayd qilganimizdek, bu kasallik, odatda, iqlimi namgarchilikli mamlakatlar uchun o'ta xosdir. Sil kasalligi kishilarga juda qadimdan ma'lum bo'lgan. Kasallik belgilari Gippokrat, Ibn Sino asarlarida ham ta'riflab o'tilgan. Uning yer sharida eng ko'p tarqalgan kasallik ekanligi statistik ma'lumotlarda ko'rsatilgan. XX asr boshlarida Yevropada har yili sil kasalligiga chalinish oqibatida 1 mln dan ortiqroq kishi vafot etar edi. Aholining moddiy farovonligi va gigiyenik shart-sharoitlarining yaxshilanishi, tibbiyot fanning muvaffaqiyatlari tufayli bu kasallik birmuncha kamaydi. Biroq, hozirgi kunda ham jahonning deyarli barcha mamlakatlari sog'liqni saqlash tizimidagi silga qarshi kurash hamon eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda faqatgina nafas olish a'zolarida uchraydigan tuberkulyozni ko'rib chiqish e'tiborga loyiqdir. Yangi statistik ma'lumotlarda esa respublika hududida har 100 ming aholiga nisbatan 2017-yilda 12153,0 kishi, 2020-yilda esa 26,2 kishiga kamayganligini ko'rishimiz mumkin, Hududlar kesimida hisoblaganda Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich 2017- yilda 377 kishi bo'lgan bo'lsa , 2020-yilda 30,7 kishiga ya'ni qariyb 10 baravarga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Navoiy viloyatining tumanlar orasida esa eng yuqori ko'rsatkich 2016-yil hisobi bo'yicha har 100 ming aholiga nisbatan Tomdi (102,3) va Konimex (57,8) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Navoiy shahri (24,7) va Navbahor tumani (27,1) da kuzatilgan. Ushbu kasallikka chalinganlik natijalari ayrim mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, quyidagi fikrlarni bildirish mumkin: Rossiyada 2014 yilda tuberkulyoz bilan kasallanish har 100 ming kishiga 90,2 kishiga yetgan; respublikamizda bu ko'rsatkich mazkur yilda 42,0 kishini tashkil etdi. Respublikamizda keyingi yillarda zahm va so'zak (siflis, gonoreya) kasalliklarining ham ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Ushbu xastaliklar bevosita, yuqumli-parazitar kasalliklar turkumiga kirmaydi, u alohida tanosil kasalliklar deb nomlanuvchi guruhga mansub. Mazkur kasallik kichik guruhi tarkibiga kiruvchi xastaliklar (zahm, so'zak, trixomonoz, yumshoq shankr) faqatgina jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar bo'lib, yuqumli xarakterga egaligi sababli ularni ham shu o'rinda tahlil qilishni lozim deb topdik. Ushbu kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalish sabablari sotsial gigiyena, yuqumli kasalliklar va boshqa ko'pgina soha mutaxassislari tamonidan olib boriladi. Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1991-2013 yillarda mazkur xastaliklar va, xususan, zahm kasalligi birmuncha kamaygan. Biroq, viloyatlar miqyosida Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida zahm kasalligining o'rtacha ko'rsatkichi respublikaga nisbatan juda yuqori Shu bilan birga Buxoro, Navoiy viloyatlarida bu holat deyarli respublika ko'rsatkichiga yaqin. Ayni vaqtda mazkur kasallikka chalinganlar soni Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatlarida ancha kam. Ushbu xastaliklar ham asosan yirik shaharlar va aholi zich joylashgan hududlarda yuqori ko'rsatkichlariga ega. Ma'lumki, bunday xastaliklar qadimda ham o'lkamizda mavjud bo'lgan. Chunonchi, Abu Ali ibn Sino asarlarida (Tib qonunlari, 1994) ushbu kasalliklarga ham ta'rif berilgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday xastalikka uchragan kishilar toshbo'ron qilingan, omma orasida yurishga yo'l qo'yilmagan. Shu o'rinda aytish mumkinki, nafaqat zahm yoki so'zak bilan kasallangan kishilar, balki boshqa yuqumli

xastaliklar vabo va o'lat singari kasallik bilan og'rigan kishilar bilan ham shunday munosabatlar olib borilgan. Bunday kasallikka chalingan kishilar hatto yoqib yuborilgan. Davrlar o'tishi bilan tibbiyot sohasining rivoj topishi, tibbiy nazoratni yo'lga qo'yilishi oqibatida yuqoridagi ayrim xastaliklar batamom tugatildi. Ammo, tanosil kasalliklarining ortib borishi respublikamizda hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Ijobiy tarzda ta'kidlash joizki, hozirda respublikamiz mintaqalarida vabo kasalligi aholi orasida qayd etilmagan. Vaholanki, statistik manbalarga ko'ra, jahonning ayrim davlatlarida ushbu kasallik batamom tugatilmagan.

Shunday qilib, bugungi kunda O'zbekistonda yuqumli kasalliklar o'z salmog'i jihatidan yuqori o'rinni egallamasada, ular orasida ayrimlari, jumladan, sil va ba'zi tanosil xastaliklar (zahm, so'zak) ning ortib borishi bilan alohida ajralib turmoqda. Bunday xastaliklarga duchor bo'lish aksariyat hollarda o'smirlar va ko'proq katta yoshli aholi guruhlari uchun xos bo'lib, ular so'nggi yillarda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil qilmoqda.

Xulosa o'rnida mazkur kasalliklar tarqalishining asosiy omili sanitariya–gigiyena talablariga rioya qilmaslik va aholi orasida gigiyenik tarbiyaning yetarlicha emasligidir. Umuman olganda, insoniyat XXI asrga qadam qo'yar ekan uning oldida chekchegarasiz muammolar yuzaga kelishi, tabiiy. Aynan ana shunday muhim umuminsoniy masalalardan biri bu yer yuzida avvalgi davrlarga xos va mos bo'lmagan yuqumli xastaliklarning vujudga kelayotganligidir. Jumladan, hozirgi davrda keng tarqalayotgan va ko'pchilikni tashvishga solayotgan OIV/OITS, parranda grippi, sil, pnevmoniya (zotiljam), ayrim tanosil kasalliklarning ko'pchiligi bizning mamlakatimiz aholisi orasida ham uchraydi. Ba'zilari esa respublikamizda hozircha kuzatilmagan.

Binobarin, kelgusida O'zbekiston Respublikasida ham sanitariya-epidemiologiya markazlari, tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, davlat bojxona xizmati tashkilotlari, tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi hamkorlikda ushbu masalani jiddiy hal etilishi, zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir. Aks holda yuqoridagi ko'pgina yuqumli xastaliklarning tarqalib ketish xavfi bor. Kelgusida mazkur masalalarni hal etish mamlakatimizda umumiy nozogeografik vaziyatni yaxshilash va aholi orasida sog'lom ekologik muhitni yaratish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абу Бакр Ар-Розий. Касалликлар тарихи. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. -251 б.
2. Komilova N.Q., Soliev A.S. Tibbiyot geografiyasi. -Toshkent, "Istiqlol", 2005. . – 39-43 b.
3. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. - Toshkent, —SHARQ||, 2016. 275-277 b.
4. Комилова Н.Қ., Равшанов А, Мухаммедова Н, Тиббиёт географияси ва глобал саломатлик. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2019-10 б.

5. Malxazova S.M. Mediko-geograficheskiy analiz territoriy: kartografirovaniye, otsenka, prognoz. -M.: Nauchnyy mir, 2001. 240 s.

6. Прохоров Б.Б. Здоровье человека как функция истории и географии // Энергия. 2002. -С. 32-36.